



ESHITISH QOBILIYATI ZAIF BOLALARDA NUTQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING MAXSUS USULLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Rasulova Gulhayo Shoyetbek qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Masofaviy ta'lim Psixologiya 25-06 talabasi

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li

"Kompyuter injiniring va raqamli texnologiyalar" kafedrası o'qituvchisi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali

Email: xalimjonov12.34@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17277412>

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitish qobiliyatida zaif bolalarda nutqiy tafakkurni rivojlantirishning maxsus usullari va ularning samaradorligi to'g'risida. Nutqiy tafakkur insonning mantiqiy fikrlash, bilim o'zlashtirish va ijtimoiy mulokot qilish qobiliyatining asosiy poydevori hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat so'zlarni talqin qilish, balki murakkab tushunchalarni shakllantirish, xotirani ishlatish va muammolarni hal qilish kognitiv funksiyalarni ham o'z ichiga oladi. Eshitish qobiliyatining zaiflashishi bolaning atrof-muhitdagi tovush signallarini to'liq qabul qilolmasligiga olib keladi, natijada nutqning fonematik idroki, leksik-badiiy ba'zasi va grammatik tuzilishi sezilarli darajada susayadi.

Аннотация: В статье рассматриваются специальные методы развития вербального мышления у детей с нарушением слуха и их эффективность. Вербальное мышление является основой способности человека к логическому мышлению, приобретению знаний и социальному общению. Этот процесс включает в себя не только интерпретацию слов, но и такие когнитивные функции, как формирование сложных понятий, использование памяти и решение задач. Нарушение слуха приводит к неспособности ребёнка полноценно воспринимать звуковые сигналы окружающей среды, в результате чего существенно ослабевают фонематическое восприятие, лексико-художественная основа и грамматический строй речи.

Abstract: This article discusses special methods for developing verbal thinking in children with hearing impairment and their effectiveness. Verbal thinking is the main foundation of a person's ability to think logically, acquire knowledge, and communicate socially. This process includes not only the interpretation of words, but also cognitive functions such as the formation of complex concepts, the use of memory, and problem solving. Hearing impairment leads to a child's inability to fully perceive sound signals in the environment, as a





result of which the phonemic perception, lexical-artistic basis, and grammatical structure of speech are significantly weakened.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, kognitiv tushunchalar, nutqning fonematik idroki, reabilitatsiya jarayoni, integratsiyalashgan metodlar, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik usullar

Ключевые слова: логическое мышление, когнитивные понятия, фонематическое восприятие речи, реабилитационный процесс, интегрированные методы, современные технологии, педагогические методы.

Keywords: logical thinking, cognitive concepts, phonemic perception of speech, rehabilitation process, integrated methods, modern technologies, pedagogical methods

Surdopedagogikaning mavzu bahsi, vazifalari va metodlari Surdopedagogika (lotincha "surdus" – so'zidan olingan bo'lib "karlik" degan ma'noni bildiradi) defektologiyaning bir tarmog'i bo'lib, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim-tarbiyasi masalalari hamda muammolari bilan shug'ullanuvchi fandir. Surdopedagogikaning asosiy vazifalari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni pedagogik jihatdan har tomonlama o'rganish, maxsus maktabda til o'qitishni takomillashtirish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzini shakllantirish ishlarini yuqori pog'onaga ko'tarish; eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish va uni takomillashtirish, eshitish idrokining rivojlanish tizimi samaradorligini oshirish, o'z bitiruvchilarining ma'lum bir kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish. Kar bolalar uchun maktablar oldida turgan muhim va xususiy masalalardan biri – bu o'quvchilarda turli shakldagi (daktil, yozma va og'zaki) so'z nuqtini shakllantirish sanaladi.

Nutqning daktil va yozma shakllari texnik jihatdan kar bolalar tomonidan nisbatan yengil o'zlashtiriladi, chunki bolalarning saqlangan ko'rish analizatoriga oxirigacha aniq ko'rinishda taqdim etilishi mumkin. Bu tomondan nutqning og'zaki shakli bo'yicha vaziyat murakkablik tug'diradi. Karlar tomonidan bu shaklni o'zlashtirish zarurati u, xususan, eshitish qobiliyatiga egalar o'rtasida bevosita muloqot uchun eng ko'p foydalanishidan kelib chiqadi. Eshitish analizatori funksiyasi buzilishi sababli kar bolalar og'zaki nutqni asosan aylanma yo'l bilan o'zlashtiradi. Buning uchun ular ko'rish va teri analizatorlardan foydalaniladi. Atrofdagilar bilan bevosita muloqotda og'zaki nuqtini idrok qilishga kelsak, u faqat ko'rish analizatori orqali amalga oshiriladi. Eshtish qobiliyati zaif bolalarda nutqiy tafakkurni rivojlantirishda qo'llaniladigan integratsiyalashgan





metodlarning samaradorligini aniqlash. Eshitish qobiliyati zaifligi bilan nutqiy tafakkur rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish. Nutqiy tafakkurni rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologik va pedagogik usullarni (koxlear implant, FM tizimlar, interfaol dasturlar) tahlil qilish. Multidisciplinar yondashuv (audiolog, logoped, psixolog, ota-ona) asosida olib borilgan ish samaradorligini baholash. Nutqiy rivojlanishdagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Eshitish qobiliyati zaifligi iloji boricha erta aniqlandi va reabilitatsiya jarayoni darhol boshlanishi kerak. Texnologik yordamdan foydalanish: Koxlear implantlar va eshitish apparatlaridan unumli foydalanish bo'yicha ota-onalar va pedagoglar maxsus treningdan o'tishlari lozim. Muntazam logopedik mashqlar: Nutqiy mashqlar muntazam va tizimli ravishda individual dastur asosida amalga oshirilishi kerak. Ota-onalarni jalb etish: Reabilitatsiya jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar bilan ishlash jarayonida bayonotlarni aniqlashtirish masalasiga e'tibor berish kerak. Inson eshitish orqali ma'lumotlarni qabul qilib olib nutq orqali boshqalarga yetkazadi. Undagi eshitishning buzilishi axborotlarni qabul qilish va yetkazishda muammolarni keltirib chiqaradi. O'z navbatida eshitishning buzilishi tasnifida nafaqat eshituv funksiyasining zararlanish darajasi, balki nutq holati ham xisobga olinishi kerak. So'zlarning semantikasi va kengaytmalarni tushunish bo'yicha mashg'ulotlar murakkab xarakterga ega bo'lib, ular tematik prinsipini va muayyan bosqichma-bosqich ishlarni o'z ichiga oladi. Bir qator usullardan foydalanish kerak: o'yinda o'qituvchi nutqining namunasini takrorlash, samarali faoliyat va hokazo. Nutq materiali dasturning turli bo'limlari bilan bog'lanishi kerak. L.P. Noskova bir qator tamoyillarni taklif qildi, ularning amalga oshirilishi zaif eshituvchi bolaning nutqini shakllantirishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida muloqot shakllantirish jarayonida paydo bo'lgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Prinsiplardan biri genetik, ya'ni ma'lum bir yosh davrida eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda nutq rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, mazmuni, shakllari, o'qitish usullarini hisobga olish. Har bir yosh davrida bolaning nutqining rivojlanish darajasi o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Bunday mutanosiblikning buzilishi eshituv buzilish nutq rivojlanish davrida nutqning rivojlanish buzilishiga ta'sir etish darajasiga yetmaganligi bilan bog'liq bo'ladi. Bunga esa qo'shimcha qilib aytish kerakki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivoji normal eshitadiganlar kabi ularning o'ziga xosligi bilan, birinchi navbatda esa intellekti bilan bog'liqdir. Bolani u yoki bu eshitish buzilish darajasiga kiritishda asosiy e'tiboni eshituv






orqali nutqni idrok etishga qaratish kerak. Eshituv funksiyasining buzilish darajasiga ko'ra 2 xildagi eshituv buzilishi ajratiladi.

1.Karlik

2.Zaif eshituvchanlik


Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitish qobiliyatidan ajralgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, Ya.T.Speshnevlar ular orasida ma'lum tarzda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan bolalar borligi, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa eshitishi zaif bo'lgan bolalar nutqining ma'lum qismi shakllanishi haqida qayd etishgan. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofdagi yaqinlari, ayniqsa, onasi g'amxo'rlik qilishi kerakligi hamda kar bolaning nutqining rivojlanishi ilk davrlardan, hattoki boshqalar nutqiga taqlid qilgan holda rivojlanishini ta'kidlagan holda "Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi", - deb yozadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fikrlash operatsiyalari eshituvchi bolalarga nisbatan kech shakllanadi. Analiz va sintez jarayonini rivojlanishida ham orqada qolish kuzatiladi. Bu jarayonlar yanada uzoq muddatli va sistematik tarzda amalga oshadi. Taqqoslash jarayonida farqlarni topish va o'xshatish munosabatlari amalga oshadi. I.M.Salovyov ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda taqqoslashning quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: ikki predmetni taqqoslashdan birining analiziga o'tib ketish, vazifani soddalashtirish, predmetlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. L.S. Vigotskiyning fikricha- "Jamiyatdagi karlik muammosi - ijtimoiy muammo"dir. O'ziga xos kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'limi va ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish alohida ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda saqlanib qolgan sezgi a'zolarining kompensator faollashuvi munosabati bilan axborotni vizual idrok etish yetakchi o'rinni egallashi ham bu omilni kuchaytiradi. Bilimga bo'lgan qiziqishni oshirishda, faqat o'rganilayotgan materialning mazmuniga tayanib bo'lmaydi, o'quv jarayoniga bolalarni jalb qilish usullari hamda mashg'ulot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Kompyuter va kompyuter texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Eshitish qobiliyati buzilgan bolani inklyuziv makonda o'qitish va didaktik resurslardan foydalanish jarayonida o'qituvchi bunday o'quvchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda oldindan ko'rishi kerak bo'lgan turli xil vaziyatlar (shu jumladan ta'lim) yuzaga keladi. Taqdim etilgan tavsiyalar eshitish qobiliyati buzilgan bolaning sinfdagi qiyinchiliklarini bashorat qilish va engish bo'yicha o'qituvchining faoliyatini tashkil etishga imkon beradi.





- ❖ Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ish sur'ati sekinroq bo'lgani uchun topshiriqlarga, ayniqsa yozishga ko'proq vaqt ajrating.
- ❖ Har qanday o'quv vaziyatida ma'lumotni shunday taqdim etingki, bola uni o'z ko'rish qobiliyatidan foydalangan holda idrok eta oladi.
- ❖ Har bir vaziyat qandaydir umumiy sabab, harakatni amalga oshirish kontekstida muloqot holati bo'lishi kerak. Shuning uchun har bir yangi so'z bolalarning faol nutqiga kirishi uchun ishning muayyan vaziyati, tengdoshlar bilan umumiy ish bilan turtki bo'lishi kerak.
- ❖ Har qanday vaziyatda ham o'z kuchingiz bilan ishlarni birinchi o'ringa qo'ying
- ❖ Har qanday vaziyatda ham bolalarni dialogga, natijalar va ularga erishish jarayonini muhokama qilishga jalb qiling.
- ❖ Faoliyat yoki vazifalarni o'zgartirganda, bola sizni tushunayotganiga ishonch hosil qiling (masalan, "nima qilasiz, takrorlang", "bolalarga nima qilish kerakligini ayting" texnikasidan foydalaning).
- ❖ Sinfdagi yuqori darajadagi shovqinlardan saqlanib, o'quv jarayoniga eshitish uchun dam olish turi bo'lgan va sinfdagi barcha o'quvchilar uchun foydali bo'lgan "sukut daqiqalarini" kiriting.
- ❖ Eshitishda nuqsoni bo'lgan boladan va barcha o'quvchilardan o'qituvchidan keyin takrorlashni so'rab, taklif qilingan materialning asosiy fikrlarini bir necha marta takrorlang.
- ❖ Bolalar tushuna olishlari, mazmuni haqida o'ylashlari uchun savollarni aniq, qisqacha qo'ying. Ularga javob berishga shoshilmang, o'ylash uchun vaqt bering.
- ❖ Suhbat yoki dars davomida eshitish qobiliyati zaif bolaga tezkor yordam ko'rsatish usullaridan foydalaning: iborani takrorlang, kalit yoki noto'g'ri tushunilgan so'zni yozing; butun gapni yozing.
- ❖ Kengash maydonidan maksimal darajada foydalaning. Daskada o'quv materialining bir qismini va yangi lug'atni olib tashlang. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaga yuz marta eshitishdan ko'ra bir marta ko'rish osonroq. Iloji boricha illyustrativ materiallardan foydalaning.

Kar bolalarni yakka o'qitishda o'sha vaqtning buyuk olimi Djerolamo Kardano (1501-1576) "karlik va soqovlikka" fiziologik tushuncha berdi. U tomonidan birinchi bo'lib karlar bilan ishlash metodi ishlab chiqildi. XV-XVIII asrlarda karlarni yakka o'qitishda 2 xil oqimi tashkil qilindi. 1-oqimga mansub X.P.Bonet (Ispaniya), D.Bo'lver, D.Vallis (Angliya) va h.k. nutqning har xil turlari: so'zli, yozma, daktil, imo-ishora nutqlaridan foydalanish g'oyasini ilgari suradi. 2-






oqimga mansub F.M.Van Gelmont, I.K.Amman (Gollandiya), F.L.Terkiy (Italiya), V.Kerger, G.Rafelg (Germaniya)lar o'qitish va muloqotda faqat so'zli nutqdan foydalanish tavsiya etadi. Surdopedagogika yana surdopsixologiya bilan ham chambarchas bog'langan. Surdopsixologiya kar va zaif eshituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi, kar va zaif eshituvchi bolalar shaxsni shakllanishining xususiyatlarini ochib beradi. Surdopsixologiya fani kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlanishidagi nuqsonlarini bartaraf qilish, ya'ni korreksiya, kompensatsiya ishlarini qanday yo'nalishda olib borish yo'llarini aniqlab beradi. Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiya berishning sifatini tekshirish, yaxshilash borasida maxsus surdopsixologik tadqiqotlar olib boriladi. Maxsus maktablarda tovushni kuchaytiradigan moslamalar, daktil tebranish uskunalaridan keng foydalaniladi.

Surdopedagogikaning muammolaridan biri maxsus zamonaviy adabiyotlar darslik, metodik to'plamlar;ilmiy jurnallardagi maqolalar;ilmiy adabiyotlar pedagogika, psixologiya, surdopsixologiya va defektologiyaning boshqa tarmoqlari;maxsus adabiyot defektologiya lug'ati, pedagogika ensiklopediyasi ;mashhur surdopedagoglar faoliyati;surdopedagogik muassasalarning ishlari ma'ruzalar, hisobotlar ni tuzganish va rivojlantirishdir..Surdopedagoglarning adabiyotlar bilan ishlashi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlanish davrlarini o'rganishga imkon yaratadi. Bolalarni o'rganishda keng qo'llaniladigan metodlardan biri so'rovnomadir. So'rovnoma yozma (testlar) yoki intervyu (so'zli) tarzida bo'lishi mumkin. Bu metod o'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektning yoki shaxsning qiziqishlari hamda qarashlarini o'rganishda qo'llaniladi. Suhbat metodi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar va ularning otaonalari, surdopedagoglardan ma'lumotlar olishda qo'llaniladi. Bunda pedagog kuzatilayotgan shaxsga oldindan aniq maqsadga yo'naltirilgan savollar tuzgan bo'lishi lozim. Surdopedagog nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

- 1/nutqning to'g'riligi;
- 2/nutqning aniqligi;
- 3/nutqning ifodaviyligi;

4/nutqning sofliigi (uning turli sheva so'zlaridan holi bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan





foydalanish) so'zlardan holi bo'lishi, Surdopedogogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

1.nutqning ravonligi;

2.nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

Surdopedogog shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi. Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. Surdopedogog barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, etuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va 24 boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, uning shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar 6. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi.

Xulosa

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsini mahalliy va xorijiy tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, xorijiy tadqiqotlarda og'zaki nutqning rivojlanish darajasi aqliy qobiliyatning ham rivojlanishiga ta'siri va oiladagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolaning hissiy aurasini va shaxsiyati rivojlanishidagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor berilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa ko'pincha ta'lim tizimiga e'tibor qaratiladi. Umuman olganda, kar bolalarning oilasi bilan bo'lgan muloqatlarning passiv ishtirokchisi bo'lishi ularning hissiy, aqliy va xulq-atvor buzilishiga olib keladi. Xususan, hissiy jihatdan barqaror odam o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtiradi, atrofidagi odamlar bilan yaxshi munosabatga kirisha oladi va jamiyatning aktiv a'zosi bo'loladi. Zamonaviy texnologiyalar jalb qilingan har qaysi mashg'ulotlarga





bolalarda qiziqish uyg'onib, ijobiy munosabatda bo'ladilar. Bu ularning motivatsiyasini oshirishga va bola uchun ham, pedagog uchun ham muhim bo'lgan natijalarga erishishda yordam beradi. Kompyuter ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi, yangicha ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib, bolaning individual xususiyatlariga moslashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minova L.R., Sh.M.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2013.
2. Mamirova Feruza Sulaymonovna (2023). STUDY AND SIGNIFICANCE OF YOUTH DEPENDENCE ON SOCIAL NETWORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (17), 205-212.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish to'g'risidagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.
4. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 563-566.
5. Nigina, Abdunazarova, and Yolchieva Dilfuza. "technology for the development of speech logic in native language lessons with students of special institutions." Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 11 (2023): 1086-1090...

